

“ALPOMISH” DOSTONIDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLAR

Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li

UrDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan antroponimlarning lug‘aviy tarkibi va funksional-semantik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: antroponim, real nom, noreal nom, atoqli otlar...

Annotation: This article analyzes the lexical structure and functional-semantic aspects of the anthroponyms used in the "Alpomish" epic.

Key words: anthroponym, real name, non-real name, common nouns...

Аннотация: В статье анализируются лексический состав и функционально-семантические аспекты антропонимов, используемых в эпосе «Алпомыш».

Ключевые слова: антропоним, настоящее имя, ненастоящее имя, имена нарицательные...

Onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarni toifalariga ko‘ra bo‘limlarga ajratadi. Shulardan biri antroponim (yunoncha: antropos - antropos + onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri⁵⁹. Ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi antroponimiya deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastikaning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. O‘zbek antroponimlarini ilmiy asosda to‘plash va o‘rganish ishlari XIX asr oxiri- XX asr boshlarida boshlangan edi. Dastlab Ye.T.Smirnov (1899), keyinchalik N.S.Likoshin (1916) va boshqa rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining a‘zolari (V.F.Oshanin, A.Samoylovich kabilar) o‘zbekcha ismlarni to‘plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bilan shug‘ullanganlar. N.Ostroumov (1910), A.Samoylovich (1911), S.Oldenbourg (1928), V.Ya.Nalivkin, M.Nalivkina (1897) kabilarning ishlarida o‘zbekcha ismlar va laqablarning etimologiyasi, etnografiyasiga oid ayrim masalalar o‘rganilgan edi. N.S.Maliskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlari, urf-odatini masalalari bilan

⁵⁹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 13-бет.

shug'ullangan (1928). S.Ibrohimov, M.Rahmonlar esa o'zbekcha ismlar va familiyalarning imlosiga doir kuzatishlar olib borganlar (1935). XX asrning 70-yillarida o'zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanishi bilan uning tarkibidagi antroponimika (ismshunoslik)ka oid tadqiqotlar ko'lamini ham kengaytdi. Shu davrdan boshlab o'zbek antroponimiyasi xilma-xil yo'nalishda o'rganiladigan bo'ldi. Mustaqillik yillarida o'zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlar doirasi yana ham kengaytdi. Masalan, S.Rahimov Xorazm vohasi misolida mintaqaviy (regional) antroponimiya masalalariga doir kuzatish ishlari olib bordi⁶⁰, shu asosda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi⁶¹.

Atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan bittasini ajratish uchun qayta nomlangan ikkilamchi nomlardir. Atoqli otlar bilan ob'ektiv olamdagi narsalar o'rtasidagi aloqa so'zlovchi tomonidan o'rnatiladi. Agar ma'lum bir atoqli ot so'zlovchi tomonidan muayyan bir obyektga bog'lanmasa, u hech narsa bildirmaydi. "Alpomish" dostonidagi atoqli otlarni ma'nosiga ko'ra ikki xil nomlarni uchratish mumkin:

1.Ma'nosi aniq sezilib turuvchi nomlar. Bunda atoqli otlarning ma'nosi aniq sezilib turadi. Masalan:

*Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida **Dobonbiy** degan o'tdi. **Dobonbiydan Alpinbiy** degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. **Alpinbiydan** tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini **Boybo'ri** qo'ydi, kichkinasining otini **Boysari** qo'ydi. **Boybo'ri** bilan **Boysari** — ikkovi katta bo'ldi. **Boysari** boy edi, **Boybo'ri** esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi.*⁶²

Yuqoridagi dostondan keltirilgan parchada qo'llanilgan antroponimlar (**Dobonbiy, Alpinbiy**) tarkibidagi "**biy**" so'zi fonetik jihatdan variatsiyaga uchragan bugungi kundagi "**bek**" so'ziga ayni ma'nodoshdir. Ya'ni, Alpin+bek, Dobon+bek kabi. Bu atoqli otlar tarkibidagi "**biy**" so'zi mansab-unvon ma'nosida qo'llanilib, ularning beklar avlodiga mansubligini ham anglatadi. **Boybo'ri, Boysari** antroponimlari esa kompozitsiya usulida yasalgan bo'lib, yasashga asos qism sifat so'z turkumida. **Boybo'ri** qo'shma so'zi tarkibidagi "**bo'ri**" qismi esa azaldan ramziy ma'noda kuch-qudrat ma'nosida qo'llanilib, bu yerda ham ayni shu ma'noda qo'llanilgan deb hisoblasak adashmagan bo'lamiz. Boysari so'zi tarkibidagi "sari" qismi esa

⁶⁰ Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимларининг баъзи бир фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 1. 64-66-бетлар; Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимиясига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 5. 39-41-бетлар ва бошқалар.

⁶¹ Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси. – Тошкент, 1998, 27 бет.

⁶² Alpomish- o'zbek xalq qahramonlik dostoni. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To'ra Mirzayev. –Toshkent: Sharq nashriyot matbaa, 2010. 15-bet.

“shoh” ma’nosini anglatadi. Fikrimiz isboti sifatida dostonidan olingan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin: *Boysari boy edi, Boybo’ri esa shoy*⁶³ edi, *bul ikkovi ham farzandsiz bo’ldi*.⁶⁴

Shohimardon piri Boybo’rining o’g’lining otini **Hakimbek** qo’ydi,.....Qizining otini **Qaldirg’ochoyim** qo’ydi. Boysarining qizining otini **oy Barchin** qo’ydi (*Alpomish, 16-bet*).

Shohimardon piri- dostonda payg’ambar ma’nosida qo’llanilgan.⁶⁵

Hakimbek (ar.)- tengsiz aql va hikmat sohibi.

Barchinoy (o’z.)- shoyi mato, ipak mato, parchin yoki go’zal, zebo qiz.

Qaldirg’ochoyim antroponimi esa turdosh otdan o’tgan atoqli ot hisoblanadi. Ya’ni, asl turdosh ma’nosi qushni anglatadi. Undan tashqari yana Qaldirg’ochoyim nomi “Bozirgon” va “Yusuf va Ahmad” dostonlarida ham antroponim sifatida qo’llanilgan.

2. Ma’nosi hozirda qorong’ilashgan ismlar. Atoqli otlarning ma’nosi hozirgi kunga kelib bir oz xiralashgan, ma’no anglashilishi qiyin bo’ladi. Masalan: Qalmoqshohning **Tovka** degan qizi bor edi.⁶⁶ *Alpomish* aytdi: — o’g’rining piri hazrati **Joltong** deguchi edi, hazrati Joltonga sirina qolgin⁶⁷

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, “*Alpomish*” dostonida qo’llanilgan antroponimlar leksik-semantik jihatdan xilma-xil bo’lib ulardan ayrimlari bugungi kunda o’g’uz lahjasi vakillari shevasida aynan saqlanib qolgan. Bularga tahlil jarayonida yana bir bora amin bo’ldik. “*Alpomish*” dostonidagi atoqli otlarni ma’nosiga ko’ra ikki xil nomlarni uchratish mumkin:

1. Ma’nosi aniq sezilib turuvchi nomlar.
2. Ma’nosi hozirda qorong’ilashgan ismlar.

Asarda eng ko’p qo’llangan anomastik birliklar sirasiga asar qahramonlari ismini ifodalovchi antroponimlar hisoblanadi. O’zbek antroponimikasining erishgan yutuqlari juda salmoqli, lekin bu sohada amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlar, qator muammolar ham bor. Bular kelgusida albatta yechimini topadi.

⁶³ shoh

⁶⁴ *Alpomish*- o’zbek xalq qahramonlik dostoni. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To’ra Mirzayev. –Toshkent: Sharq nashriyot matbaa, 2010. 15-bet.

⁶⁵ Olloyorov Q., Madiyorova V., Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug’ati. –Toshkent, 2017-yil.

⁶⁶ *Alpomish*- o’zbek xalq qahramonlik dostoni. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To’ra Mirzayev. –Toshkent: Sharq nashriyot matbaa, 2010. 254-bet.

⁶⁷ *Alpomish*- o’zbek xalq qahramonlik dostoni. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To’ra Mirzayev. –Toshkent: Sharq nashriyot matbaa, 2010. 264-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 13-бет.
2. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимларининг баъзи бир фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997.
3. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимиясига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997.
4. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси. – Тошкент, 1998.
5. Alpomish- o'zbek xalq qahramonlik dostoni. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarif va To'ra Mirzayev. –Toshkent: Sharq nashriyot matbaa, 2010.
6. Olloyorov Q., Madiyorova V., Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug'ati. –Toshkent, 2017-yil.